



## MUQIMIYNI YOD ETGAN SHOIR!

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi  
Toshkent davlat transport universiteti  
Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi  
E-mail: [yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri maqsud Shayxzoda tomonidan Muhammad Aminxo'ja Muqimiylay hayotining eng mashaqqatlarga boy davrlarda ham ularning og'ribosiqlik bilan yengib o'tgan buyuk shaxs siymosini tarannum etgan.

**Kalit so'zlar:** shoir, hujra, minora, ijod, mashaqqat.

### ПОЭТ, КОТОРЫЙ ПОМНИЛ МУКИМИ!

Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.  
ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Абстрактный.** В этой статье народный поэт Узбекистана Максуд Шайхзаде прославил великую личность Мухаммада Аминходжу Мукими, преодолевшего самые трудные времена своей жизни.

**Ключевые слова:** поэт, келья, башня, творчество, трудолюбие.

### A POET WHO REMEMBERED MUQIMI!

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna  
TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY  
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Abstract.** In this article, the People's Poet of Uzbekistan, Maqsud Shaikhzada, glorified the great personality of Muhammad Aminkhoja Mukimi, who overcame the most difficult times of his life.

**Key words:** poet, cell, tower, creativity, hard work.



Muqimiy Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li-shoir va mutafakkir. O‘zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan. Otasi toshkentlik, onasi Oyshabibi xo‘jandlik bo‘lib, Qo‘qonda yashaganlar. Muqimiy boshlang‘ich ma’lumotni mahallasidagi mактабда olgan. Onasi Muhammad Aminxo‘jada she’riyatga havas uyg‘otgan. Muqimiy Qo‘qondagi Nodira bino qildirgan «Moxlar oyim» madrasasida, so‘ng Buxoro madrasalaridan birida o‘qigan. 1876 yilda Qo‘qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan. 70-yillar oxirlarida Qo‘qonga qaytgan va ijod bilan shug‘ullangan. Otasi vafotidan so‘ng moddiy ahvoli og‘irlashgach, «Hazrat» madrasasining kichik bir hujrasiga ko‘chib o‘tgan (1885), butun umri qashshoklikda kechgan. Bir necha bor Toshkentga sayohat qilgan (1887—88, 1892), Toshkentdagi yangiliklar bilan tanishgan. Toshkent madaniy va adabiy hayotini chuqur o‘rgangan. Almaiy, Nodim kabi ilg‘or ruhdagi ijodkorlar bilan aloqa bog‘lab, ijodiy hamkorlik qilgan. Muqimiy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ijodining ilk davrida qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardonlik mayllariga berilish ham uchraydi. Lekin tezda bu xil an’analardan voz kechib, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi.<sup>1</sup> Shunday mashaqqatli zamonalarni boshidan kechirgan Muqimiy haqida ikki xalqning suykli farzandi Maqsud Shayxzoda shunday yozadi:

Ko‘hna madrasaning tanho hujrasi,  
Sarhovuz labida baland chinorlar.  
Barglarda o‘ynashar nurlar zarrasi,  
Falakka yolvorar horg’in minorlar.

Umr atalmish kitobingizning qay sahifasida qanday kunlar yozilganini hech qachon bilmaysan kishi. Muqimiyning ham ayni boshiga og‘ir kunlar tushib madrasaning bir hujrasida yashab, g’aribona hayot kechirgan serqirra ijodkorning hayotini u yashagan hujra atroflarida ko‘kka yolvorgan horg’in minorlar deb tasvirlagan.

So’lgan bog’chalarining shabbodasidan,  
Singan piyolaning qon bodasidan.  
Bevafo dilbarning bo’sh va’dasidan,  
Noliydi shoirning o’rtangan bayti,  
Ayniqsa, bahorning ilk kelgan payti.

<sup>1</sup> <https://tafakkur.net/muhammad-aminxoja-muqimiy.haqida>



Shoir qalami bilan o'z davrining eng muammoli, ziddiyatlarga to'la holatlarini aks ettiradi. Shu sabab Shayxzoda bo'lib o'tgan har qanday dilxiraliklarni tasvirlar ekan shoir bayti azoblanadi deya ta'riflanadi.

Sevgidan qorilgan chin zuvalasi,  
Sevgan qofiyasi jon bilan jonon:  
Bir go'zal dastidan oh-u nolasi,  
Ishqning ko'chasida yo'qolmish imon.

Muhabbat-inson qalbining eng nozik hislari bilan qorishilgan bebahо tuyg'udir. Siz kimnidir chin yurakdan yaxshi ko'rib qolsangiz, siz u uchun dunyolarni ham alishishga tayyor bo'lasiz. Bu tuyg'u shunchalar go'zal bo'lishi bilan bir qatorda u qalbimizni imondan uzoqlashtirishi ham mumkin. Bu insondagi eng yomon voqeadir deya olamiz.

Ey, yaxshilar xaylin nozik miyonи,  
Garchand erdim yomonlarning yomoni,  
Bazmlarda qilgan eldin nihoni-  
Lutf-u ehsonlarning yodimga tushdi!  
Men insonlarning ichida nozik insonlardan bo'lsam-da, ammo ular ichida eng yomoni ham o'zimman deya shoir kamtarlik qilgan.

O'tga oshiftadir misli zardushtiy,  
Vatan gulzorining o'tli bulbuli,  
Hatto tushlarimda yashil Farg'ona.  
Nomardlar ichidan shoir qayg'uli,  
Lekin bir kulganda u hajviyona  
Yolg'on-u ochko'zlik, bo'hton va tuhmat.

Qo'qonda tug'ilgan muqimiyl yashil Farg'ona vodiysi, vatanining betakror gulzorlarini va sho'x xonish qiladigan bulbullarini ajoyib tasvirlagan.

Nomardliklar, bo'htonlar va ochko'zlik qarshida shoir atalmish qalbning ko'ngli qayg'ularga to'ladigan ahvoli tasvirlangan. Inson bir martalik hayotda yashar ekan hamisha o'zining asl insoniylik maqomini saqlay bilishi bu eng oliv maqsaddir.

Jafo, riyokorlik, zulm-u qabohat,  
Shoirdan zarba yer navbatma-navbat.  
Peslar tepasidan boshlar qahqaha,  
Kuladi jo'sh bo'lib mahalla, dara.

Jamiyki yomon xislatlarni barcha qalbning eng ashaddiy dushmani ekanligini va har xil shunday yomon illatlar shoir tomonidan tilga olinib qoralangandan so'ng ular shoir qalamidan zarba yeidi ma'nosida tasvirlangan.



Muqimiy lirikasi chuqur optimizm bilan sug‘orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do‘stlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, sabot va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan («Kelur oxir seni ham yo‘qlag‘udek bir zamon yaxshi» va boshqa). Hasrat, shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo‘lgan she’rlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.<sup>2</sup>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. <https://tafakkur.net/muhammad-aminxoja-muqimiy.haqida>
2. M.Shayxzoda. She’rlar.
3. <https://arboblar.uz/uz/people/mukimi>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-1850-1903>

---

<sup>2</sup> <https://tafakkur.net/muhammad-aminxoja-muqimiy.haqida>